

Date: 3rd November-2025

AQLI ZAIF O'QUVCHILARDA AGRAMMATIK DISGRAFIYANI BARTARAF
ETISH TEXNOLOGIYALARI.

Usmonov Umid Allayorovich

Mustaqil tatqiqotchi, Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada bugungi zamonaviy ta'lim tizimida imkoniyati cheklangan, xususan aqli zaif o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalash aqli zaif o'quvchilarda uchraydigan yozuv kamchiliklari va ularning turlari, xususiyatlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: agrammatik disgrafiya, fonematik eshituv, agrammatizm, motorika, aralash usullar, intellekt, korreksiya, hamkorlik.

Abstract. In today's modern education system, the issue of educating and training students with disabilities, in particular, mentally retarded students, has risen to the level of state policy. This article discusses the writing defects found in mentally retarded students, their types and characteristics. The article discusses technologies for eliminating dysgraphia in mentally retarded students.

Keywords: agrammatic dysgraphia, phonemic hearing, agrammatism, motor skills, mixed methods, intelligence, correction, cooperation.

Аннотация. В современной системе образования вопрос обучения и воспитания учащихся с ограниченными возможностями здоровья, в частности, умственно отсталых, возведён в ранг государственной политики. В статье рассматриваются дефекты письма, встречающиеся у умственно отсталых учащихся, их виды и особенности. В статье рассматриваются технологии устранения дисграфии у умственно отсталых учащихся.

Ключевые слова: аграмматическая дисграфия, фонематический слух, аграмматизм, моторика, смешанные методы, интеллект, коррекция, сотрудничество.

Bugungi kunda jamiyatda alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan aqliy rivojlanishda muammosi bo'lgan o'quvchilarni maxsus maktab ta'limi va kasb-hunar ta'limi bilan ta'minlash, ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlash, nogironligi bo'lgan bolalarning huquqlarini himoya qilish hamda inklyuziv ta'limga jalb etish UNICEF tashkiloti tomonidan amalga oshirilmoqda. Bu esa maxsus maktab ta'lim aqliy rivojlanishdamuammosi bo'lgan o'quvchilarning UNICEF tomonidan ishlab chiqilgan xalqaro huquqiy hujjatlar asosida zamonaviy ta'lim olishini kafolatlaydi.

O'zbekistonning davlat mustaqilligini qo'lga kiritgandan keyin yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar munosabati bilan yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish sifatini oshirishga bo'lgan tashkiliy, psixologo-pedagogik hamda metodik yondashuvni takamillashtirish masalalari aloxida dolzarblik kasb etadi. Jumladan aqliy rivojlanishda muammosi bo'lgan o'quvchilar va o'simirlarni o'qitish va tarbiyalash xamda ularni sog'lamlashtirishga ham aloxida e'tibor berilmoqda. Jamiyatimizda ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy o'zgarishlar yuz berayotgan bir vaqtda Vatan ravnoqini ko'zlash maqsadida asosiy e'tibor yoshlarning aqliy, axloqiy, jismoniy barkamolligiga xar tomonlama yetuk sog'lom



Date: 3rd November-2025

avlodni o‘stirishga qaratilayotgani o‘z-o‘zidan tushunarlidir. Tadqiqot ishlarining nazariy va metodologik asosini umumiy va maxsus psixologiyadagi normal va anomal bolalar rivojlanishining asosiy qonuniyatlari (L.S.Vigotskiy, R.E.Levina, A.R.Luriya, N.I.Jinkin boshqalar), agrammatik disgrafiya yozma nutqdagi buzilishlarning tuzilishi va

mexanizmlarini ochib beruvchi tadqiqotlar (R.E.Levina, R.I.Lalaeva, I.N.Sadovnikova); maktabgacha yoshdagi bolalarda yozuv buzilishlarini tuzatishga bag‘ishlangan fundamental ishlar (R.I.Lalaeva, I.N.Sadovnikova, T.A.Fotekova, T.V.Axutina, L.N.Efimenkova), ontogenezning dastlabki bosqichlarida bolalar faoliyatining sinkretik tabiati (E.N.Vinarskaya) kabi qonuniyatlarning birligi tashkil qilish, shuningdek, disgrafiya yozma nutqdagi nuqsonlarning murakkab, kombinatsiyalangan tabiati; umumiy vosita va nutqiy-motorli nuqsonlarining patogenetik umumiyliklari to‘g‘risidagi ma’lumotlariga tayanildi.

Agrammatik disgrafiya - bu bolalarning yozma nutqida grammatik xatolarni qilish bilan bog‘liq bo‘lgan qiyinchilik. Bu muammo nutqning rivojlanishida uchraydigan turli xil sabablarga bog‘liq bo‘lishi mumkin. Masalan, nutq va til rivojlanishidagi kechikishlar, tinglash va tushunish qobiliyatining pastligi, grammatik qoidalarini o‘zlashtirishda qiyinchiliklar va boshqalar. Agrammatik disgrafiya bolaga o‘z fikrlarini to‘g‘ri va aniq ifoda etishda qiyinchiliklar tug‘diradi.

1.Diagnostik bosqich: nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bolalarda agrammatik disgrafiya bartaraf etish texnologiyasini rivojlantirish bo‘yicha logopedik ishda diagnostik protseduralarni amalga oshirishga yordam beradi.

Klinik xususiyatlarini o‘rganishda miyaning yozuv markazlarida ishlov berishdagi qiyinchiliklar, shuningdek, harakatlarni muvofiqlashtirish va planlashda muammolar.

Diagnostik bosqichning asosiy maqsadi quyidagilarni aniqlashdir:

- Bolani agrammatik disgrafiya yozma nutqdagi kamchiliklarni aniqlash
 - Bolani o‘qitishda qanday qiyinchiliklar mavjudligini aniqlash
 - Bolani yozma nutqini rivojlantirish uchun texnologiyalarni ishlab chiqish
- Diagnostik protseduralar quyidagi bosqichlardan iborat:
- Bolani va uning oilasi bilan suhbatlashtirish
 - Bolani o‘qish va yozish ko‘nikmalarini baholash
 - Bolani grammatik qoidalarini tushunish va qo‘llash qobiliyatini baholash
 - Bolani o‘qish va yozishdagi xatolarini tahlil qilish

Suhbatlashish davomida mutaxassis bolaning o‘qish va yozish tarixi, o‘qish va yozishdagi kamchiliklarning boshlanish vaqti, xususiyatlari va bolaning o‘qish va yozishga bo‘lgan munosabati haqida ma’lumot oladi. Oiladan bolaning o‘qish va yozish bilan bog‘liq har qanday boshqa muammolar haqida ma’lumot olish kerak.

Nutq kamchiligi agrammatik disgrafiya quyidagi usullar bilan ta’sir qilishi mumkin:

- So‘zlarni noto‘g‘ri talaffuz qilish, ularning yozishda ham xatolarga olib kelishi mumkin.

Date: 3rd November-2025

- Grammatik tuzilmalarni tushunishda qiyinchiliklar yozma nutqda grammatik xatolarga olib kelishi mumkin.

- Nutq va yozuv o'rtasidagi bog'liqlikni o'rnatishda qiyinchiliklar yozma nutqning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli, nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarda agrammatik disgrafiyaning bartaraf etishda nutq va yozuv o'rtasidagi bog'liqlikni o'rnatishga alohida e'tibor qaratish lozim.

Nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarda agrammatik disgrafiyaning diagnostik baholash jarayonida bir qator muhim jihatlarga e'tibor qaratish kerak. Quyidagi jihatlarni hisobga olish kerak:

Bolani o'rganish va uning haqida batafsil ma'lumot to'plash. Uning rivojlanish tarixi, o'qish va yozuv ko'nikmalari, grammatik tushunchalari, nutq qobiliyatlari haqida ma'lumot olish.

Bolani boshqa bolalar bilan taqqoslash. Bolaning yozma nutq ko'nikmalari boshqa tengdoshlariga nisbatan qanday darajada rivojlanganligini baholash. Uning yozuv xatolarini boshqa bolalarning yozuv xatolari bilan solishtirish.

Bolani individual ravishda baholash. Bolaning o'ziga xos xususiyatlarini, o'quv qobiliyatlarini, qiyinchiliklarini hisobga olish. Bola haqida to'liq va aniq tasavvurga ega bo'lish.

Bolani qo'llab-quvvatlash. Bolaning yozuv ko'nikmalarini rivojlantirishda uni rag'batlantirish, qo'llab-quvvatlash va ijobiy munosabatni yaratish.

O'qish va yozish ko'nikmalarini baholash uchun standart testlar, o'qish va yozish namunalari, so'zlarni to'g'rilash bo'yicha topshiriqlar va ertaklar, hikoyalar yozish kabi turli xil usullar qo'llanilishi mumkin. Bu baholash bolaning o'qish va yozishda qanday qiyinchiliklarga duch kelayotganini va qanday qobiliyatlarga ega ekanligini aniqlashga yordam beradi.

Grammatik qoidalarni tushunish va harflarni to'g'ri yozish, so'zlarni ajratish qobiliyatini baholashda bolaning grammatik qoidalarni tushunish va qo'llash qobiliyatini aniqlashga yordam beradi. Bu turli xil topshiriqlar, masalan, jummalarni tuzish, so'zlarni bog'lash, fe'l va otlarning turlariga to'g'ri shakl berish kabi topshiriqlar orqali amalga oshiriladi.

Diagnostik baholash natijalariga ko'ra, bolalarda agrammatik disgrafiyaning bartaraf etishga qaratilgan korreksion va reabilitatsiya dasturi tayyorlanadi. Korreksion dasturi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga olishi mumkin:

Nutq terapiyasi. Bola grammatik qoidalarni o'rganishi, ularni tushunishi va qo'llashiga yordam berish. So'zlarning to'g'ri shakllanishi, grammatik tuzilmalarni o'rganish, so'zlar tartibini tushunishga qaratilgan mashqlar.

Yozuv terapiyasi. Bola yozma nutq ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam berish.

So'zlarni to'g'ri yozish, grammatik xatolarni bartaraf etish, yozuv uslubini shakllantirishga qaratilgan mashqlar.

O'quv materialini moslashtirish. Bola uchun maxsus o'quv materiallari tayyorlash, o'quv jarayonini uning ehtiyojlariga moslashtirish.



Date: 3rd November-2025

Oila bilan hamkorlik. Bolani korreksion va reabilitatsiya jarayonida oilani jalb qilish, ularga bolaning o'qish va yozuv qobiliyatlarini rivojlantirishda yordam berish.

Diagnostik bosqichning natijalariga ko'ra, bolaning o'qish va yozishdagi kamchiliklar va ularning sabablari aniqlanadi. Bu ma'lumotlarga asoslanib, bolaning o'qish va yozish qobiliyatlarini rivojlantirish uchun muayyan texnologiyalar ishlab chiqiladi. Bolaning oilasi va pedagoglar bilan muhokama qilinib, tegishli korreksion ishlar amalga oshiriladi.

Agrammatik disgrafiyaga ega bo'lgan tayyorlov guruh bolalari bilan korreksion ish olib borishda ushbu toifadagi bolalarda nutqning grammatik tuzilishini tartibga solish muhim vazifa hisoblanadi. Logoped bolalarda tilning grammatik komponentlari bilan o'zaro bog'liq harakat va amallar tizimini ishlab chiqish.

I.N.Sadovnikova disgrafiyani yo'q qilish uchun turli xil yozuvlardan foydalanish kerakligini ta'kidlaydi, korreksion ishlar esa fonetik, leksik va sintaktik darajalarda tasavvurlarini rivojlantirishdan boshlanishi lozim. I.N.Sadovnikovaning korreksiyalash metodikasi korreksion mashg'ulotlarni tuzish.

Ta'limiy (korreksion-shakllantiruvchi) bosqich nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarda agrammatik disgrafiyani bartaraf etish texnologiyasini rivojlantirish bo'yicha logopedik ishning tavsiya etilgan mazmuni asosiy yo'nalishlarini aks ettiradi.

Korreksion-pedagogik ish tizimida agrammatik disgrafiyani bartaraf etish bo'yicha ishlarni tashkil etishda R.I.Lalayevaning yozuv va o'qish buzilishlarini bartaraf etish bo'yichalogopedik ish tamoyillariga tayanish kerak, ular quyidagilardan iborat:

1. Patogenetik tamoyil (yozma nutqning buzilishi mexanizmini hisobga olish tamoyili).Agrammatik disgrafiyani bartaraf etishga qaratilgan korreksion-rivojlantiruvchi ishlar jarayonida buzilgan mexanizmni aniqlash va bartaraf etish asosiy vazifa bo'lib xizmat qiladi. Agrammatik disleksiya va disgrafiyani korreksiyalashda nutqning grammatik tomonini shakllantirish, morfologik va sintaktik umumlashmalarni shakllantirish zarur.

2. "Eng yaqin rivojlanish zonasini" hisobga olish tamoyili. Yozma nutq buzilishlarini bartaraf etish bo'yicha kognitiv jarayonlarni, shu jumladan, agrammatik disgrafiyani rivojlantirish, ushbu funksiyaning yaqin rivojlanish darajasini hisobga olgan holda, bosqichma-

bosqich o'tishi kerak.

3. Maktabgacha yoshidagi bolalarini o'qitishda rivojlanishning senzitiv davrlarini hisobga olish tamoyili. L.S.Vigotskiy bu tamoyilni «o'ta muhim qonun» deb ataydi. Predmetli va aqliy harakatlarni o'zlashtirish, ma'lum psixik jarayonlar va xususiyatlarni, shaxsiy sifatlarni rivojlantirish uchun eng maqbul davrlar mavjud bo'lib, ular agrammatik disgrafiyani yengib o'tish jarayonida hisobga olinishi kerak.

4. Polimodal afferentatsiyalarga, eng ko'p funksional tizimlarga, turli analizatorlarga maksimal tayanish tamoyili.

5. Buzilgan kognitiv jarayonning buzilmagan bo'g'iniga tayanish tamoyili.

6. O'qish va yozish jarayonining psixologik tuzilishini va nutq buzilishining xususiyatini hisobga olish tamoyili.



Date: 3rd November-2025

7. O‘qish va yozish buzilishlarining belgilari va zo‘ravonligini hisobga olish tamoyili. Disleksiya va disgrafiyaning bir xil turida u yoki bu funksiyalarning buzilish darajasi, buzilishlarning ifodalanganlik darajasi turlicha bo‘lishi mumkin.

8. Komplekslik tamoyili, bu nutq buzilishlarining butun majmuasi (og‘zaki nutq, o‘qish va yozish) uchun yozuv buzilishlarini korreksionda logopedik ishlarni amalga oshirishni nazarda tutadi.

9. Tizimlilik tamoyili. Ma’lum turdagi disgrafiyaning bartaraf etish usullari tizimidan foydalanish asosida amalga oshiriladi. Boshqa tomondan, ushbu tamoyil nutqni uning barcha tomonlari birligida yagona funksional tizim sifatida rivojlantirishni nazarda tutadi.

10. Faoliyatli yondashuv tamoyili, demak, nutq faoliyati ko‘p sonli operatsiyalar bilan tavsiflanadi, ularning aniqlanishi nutq terapiyasi ishida e’tiborga olinishi kerak.

11. Bilish jarayonlarini bosqichma-bosqich rivojlantirish tamoyili. Yozma nutqdagi buzilishlarni bartaraf etish jarayonida har bir korreksion mashg‘ulotda yanada murakkab xarakterga ega bo‘lgan yangi topshiriqlarni bosqichma-bosqich kiritish kerakligini yodda tutish muhimdir.

12. Ontogenetik tamoyil. Yozma nutq buzilishlarini korreksiyalashda ontogenezda ularning rivojlanish bosqichlarini hisobga olish muhimdir. Yozuvdagi buzilishlarni bartaraf etish bo‘yicha korreksion ishlari jarayonida umumiy didaktik tamoyillar: ochiqlik, ko‘rgazmalilik, individual yondashuv va boshqalar, shuningdek,

quyidagi maxsus pedagogik tamoyillar ham hisobga olinadi:

1. pedagogik jarayonning maqsadlilik tamoyili;
2. pedagogik jarayonning yaxlitligi va izchilligi tamoyili;
3. pedagogik jarayonning insonparvarlik yo‘nalishi tamoyili;
4. bolaning shaxsiyatini hurmat qilish tamoyili, bu unga nisbatan oqilona talablarga asoslanadi.

Korreksion-pedagogik ish tizimi agrammatik disgrafiyada buzilishning asosiy mexanizmini aniqlashda motor ko‘nikmalarni rivojlantirish orqali quyidagi maqsadlarga erishishni ko‘zda tutadi:

Motor ko‘nikmalarni rivojlantirish;

Umumiy motorika:

- harakatlarning yozuv texnikasini rivojlantirish;
- dinamik va statik koordinatsion harakatlar;
- ko‘ruv fazoviy yozuvni rivojlantirish.

Mayda motorika:

barmoqlarning yozuv harakatlarini rivojlantirish;

- bir harakatdan boshqa harakatga o‘tish tezligini rivojlantirish;
- barmoqlarning fazodagi harakatlari va ko‘ruvdagi yozuv ko‘nikmasini rivojlantirish.

Artikulyatsion motorikani rivojlantirish:

- artikulyatsion a’zolari va til harakatlarini rivojlantirish;
- artikulyatsion a’zolar holatini his etish;
- mimik muskullarni rivojlantiruvchi harakatlar.



Date: 3rd November-2025



Bolalarda yozuv ko'nikmalarni rivojlantirish orqali tovushlar talaffuzi, fonematik hidroki, so'zlarni tovush-bo'g'inli analiz-sintez qilish qobiliyatlarini rivojlantirish bo'yicha ishlarda ko'ruv tayanchi ijobiy his-tuyg'ular va motivatsiyalarni hosil qilishga qaratiladi. Bu esa, bolalarning o'z kuchlariga ishonchini, faolligini o'rttirib, o'qitish samaradorligi oshirilishiga yordam beradi. Har bir mashg'ulotda mavzuga va bolalar imkoniyatiga mos logopedik texnologiyalarning almashlab qo'llanilishi bolalarni bir ish faoliyatidan zerikishlari va vazifaning bajarilishidagi muvaffaqiyatsizliklaridan siqilishlarining oldini oladi. Masalan, noan'anaviy logopedik texnologiyalar bo'yicha berilgan topshiriqning bajarilishida muvaffaqiyatsizlikka uchragan bola, an'anaviy ish uslubida topshiriqni yaxshi bajarishi, yoki aksincha bo'lishi mumkin. Ish turlarining almashinib turishi bolaning o'z ustida ishlashi, boshqa ish usulida yo'l qo'ygan kamchiliklarini boshqalarga qarab tuzatishi, asta-sekinlik bilan duch kelayotgan qiyinchiliklarini yengishiga olib keladi.

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish joizki, bolalarda nutqning o'sishiga yordam beradigan vositalarni yoki uning orqada qolish sababini aniqlash bu jarayonga muvofiq pedagogik ta'sirni tashkil etishning kaliti bo'lib xizmat qiladi. Yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki, so'z boyligining kamba alligi aqli zaif bolalarda nutqning grammatik qurilishini o'z vaqtida egallashga ta'sir qiladi. Aqli zaif bolalar jumlar tuzish uchun kerakli so'zlarni tanlashda qiyinchiliklarga duch keladilar. Ularda so'zlarning mazmunini tushunish shakldan mazmunga tomon ko'rinishda vujudga keladi. Bunday bolalarda so'zlarning mazmunini zlashtirish jarayoni juda uzoq muddatni talab qiladi. Ularning mazmunga mos so'zlarni tanlashi va o'z fikrini ifoda qilishi tengdoshlarinikiga qaraganda zgacha kechadi. quvchilar til materiallarini tahlil qilishga, farqlash, taqqoslash, umumlashtirish, asosiylarini ajratishga ranganadilar. Materialni analiz va sintez qilish, guruhlash va umumlashtirish, xshash va farqli tomonlarni topish, grammatik va orfografik bilimlarni amalga tatbiq etish kabi ongli aqliy jarayonlar bolaning umumiy rivojlanishini ta'minlaydi, nutqiy va aqliy nuqsonlarini bartaraf etishga yordam beradi. Ona tili va yozuv darslarida o'qituvchi bolalarni til hodisalarini kuzatish va tushunib yozish, ongli o'qish, kitob yoki doskadan, kartochkalardan ko'chirib yozish, nutqni diqqat bilan tinglash, eshitib turib yozish, o'rgangan qoidaga amalda rioya qilish, aytilgan va yozilganlarini tekshirish, ko'rgan-kechirganlarini, o'z taassurotlarini og'zaki va yozma shaklda bayon etishga rgatadi. Aqli zaif o'quvchilarda nutqning grammatik qurilishini rivojlantirish jarayonida har bir o'qituvchi aqli zaif bolalar nutqiy rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olishi, mavjud nuqsonlarni korreksiyalashi hamda bilish jarayonlarini rivojlantirib borishi kerak. Ona tili darslarida aqli zaif quvchilarda grammatik tushunchalarni shakllantirish, shakllangan tushunchalarni amalda qo'llay olish malaka va ko'nikmalarini tarbiyalash jarayoni uzoq vaqtga mo'ljallangan bo'lishi, oddiydan murakkabga qarab borishi, izchillilik tamoyillari asosida tashkil etilishi, tizimli ravishda mustahkamlanib va takrorlanib borilishi lozim. o'qituvchining bayonidagi u yoki bu holatlarni yaqqol ko'rsatuvchi ko'rgazmali vositalardan bolalarni amaliy, ko'rgazmali obrazli, keyin esa tushunchalarga oid umumlashmalarga ham yondashtirishdagi real negizini tanlash uchun ko'proq darajada foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Date: 3rd November-2025

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Абдуллаева Г. «Чиройли ёзишга ўргатиш». Т., 2016 й.
2. Аристова Т. А., Яковлевой Н. Н. Коррекция нарушений письменной речи : учеб.-метод. пособие / [и др.] ; под ред.. СПб., 2004. 171 с.
3. Ахмедов Н.К. Нормал ва патологик анатомия билан физиология. Т., 2018.
4. Ахмедова З.М. Умумтаълим мактаблари ўқувчиларида дисграфиянибартараф этишда логопедик иш тизими (2-4-синфлар мисолида).: Пед.фан.ном. .дисс. –Т., 2009.
5. Ахмедова З.М., Аюпова М.Ю., Хамидова М.П. «Логопедик ўйин» “Файласуфлар” нашриёти Тошкент 2013 6 бет, 34 бет, 93б.
6. Ачилова С.Д. Дизартрия нутқ камчилигига эга болалар нутқининг фонетико-фонетик томонини коррекциялаш иш тизими Пед.фан.бўйича. фалсафа док.(PhD) дисс. Автореферати. – Т.:2021.-49 б.
7. Аюпова М.Ю. Логопедия. –Т.: Ўзбекистон файласуфлар миллий жамияти, 2007.

